O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI G‘IJDUVON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

200500, G‘ijduvon tumani, Mustaqillik maydoni 2-uy. Tel: (365) 572-12-35, faks: (365) 572-13-33, e-mail: gijduvon_th@umail.uz

2022 - yil 9 - dekabr 549-2-34-Q/22 G‘ijduvon tuman hokimligi

G‘ijduvon tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlarlari haqida”gi 101-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-25-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1.G‘ijduvon tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Tuman hokimi o‘rinbosari A.Axmedov, tuman hokimligi huzuridagi obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i M.Umarovlarga:

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

Sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirish topshirilsin.

3.Tuman hokimligi huzuridagi obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i M.Umarovga:

Xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

Qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rganish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4.Qaror matni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin hamda “G‘ijduvon” tahririyati (G‘.Ibodov) ushbu qaror matnini “G‘ijduvon” gazetasida chop etilishi tavsiya etilsin.

5.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari A.Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Ashurov**

G‘ijduvon tuman hokimining
2022 yil 9 dekabrdagi
549-2-34-Q/22-son qaroriga
1-ilova

G‘ijduvon tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha TA’RIFLAR MIQDORI

T/r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan (foiz hisobida)
1	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat’iy nazar katta o‘lchamda)	Bir o‘ringa	50%
2	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	Bir o‘ringa	50%
3	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat’iy nazar kichik o‘lchamda)	Bir o‘ringa	30%
4	Qabr ochish (diniy mansublikdan qat’iy nazar sag‘ana ochish va yopish)	Bir o‘ringa	30%
5	Qabr uchun (diniy mansublikdan qat’iy nazar 3 yoshgacha)	Bir o‘ringa	Bepul
6	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	Bepul
7	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin kuniga	Bepul

Izoh: G‘ijduvon tumanida qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ta’riflar miqdori bazaviy hisoblash miqdori ortishiga mutanosib ravishda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ta’riflar miqdori ham ortadi.